Rasmiy statistik ma'lumotlar: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Baliqchilikni rivojlantirish agentligi hisobotlari (2018–2024 yillar).

Birlamchi ma'lumotlar: Sirdaryo tumanidagi 5 ta baliqchilik xo'jaligi faoliyati bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar va suhbatlar.

Ilmiy adabiyotlar: FAO, Jahon banki va xorijiy mamlakatlar (Xitoy, Norvegiya, Rossiya)da innovatsion baliqchilik texnologiyalari tajribalari.

Qo'llangan metodlar: Taqqoslama tahlil – an'anaviy va innovatsion baliqchilik usullarining hosildorlik, tannarx va rentabellik darajalarini solishtirish. Iqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitobi –

Sof foyda (Profit = Daromad – Xarajatlar),

Rentabellik darajasi ($R = \text{Foyda} / \text{Xarajatlar} \times 100$),

Tannarx va hosildorlik dinamikasi.

Ekonometrik yondashuv – ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (suv resurslari, ozuqa xarajatlari, innovatsion texnologiya turi) regressiya modeli orqali baholandi.

Ekspert baholash – xo'jalik rahbarlari va mutaxassislarning fikrlari asosida innovatsion texnologiyalarning ustunliklari va muammolari aniqlab chiqildi. Tadqiqot chegaralari va cheklavlari

Tadqiqot faqat Sirdaryo tumanidagi xo'jaliklarni o'z ichiga oladi, boshqa viloyatlar qamrab olinmagan.

Innovatsion usullar sifatida asosan yopiq suv aylanish tizimi (RAS), aeratsiya va bioziqlantirish texnologiyalari tahlil qilindi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar inflyatsiya ta'siridan xoli holda 2023-yil narxlari asosida hisoblandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich rentabellik hisoblanadi. Uning darajasini aniqlash uchun sof foyda summasini tannarx yoki ishlab chiqarish harajatlari summasiga taqsimlab, 100% ga ko'paytiriladi. Uning tengligi quyidagicha:

$$Rd = \frac{Sf}{St} * 100$$

Bunda: Rd – rentabellik darajasi, foizda. Bu ko'rsatkich yordamida korxona, tarmoq miqyosida alohida mahsulotlarni yetishtirish uchun qilingan ishlab chiqarish harajatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Shu usul yordamida 1 so'mlik ishlab chiqarish harajatlari evaziga olingan sof foyda summasi aniqlanadi. Buning uchun olingan sof foyda summasi ishlab chiqarish harajatlarga taqsimlanishi lozim. Bu ko'rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bu iqtisodiy samaradorlik darajasi ham yuqori, ya'ni yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Shuning bilan birgalikda korxonada, mahsulot yetishtirishda sarflangan barcha harajatlarning iqtisodiy samaradorligini ham aniqlash maqsadga muvofiq. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$I_x = \frac{Sf}{j_x};$$

Bunda: - korxonaning bir yildagi jami harajati (so'mda); Bu ko'rsatkich yordamida korxona sarflangan barcha harajatlarning bir so'miga olingan qancha sof foyda olganligi aniqlanadi. Demak bu ko'rsatkich sarflangan jami harajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi. Uning absalyut miqdori imkoniyat darajasida yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Lekin bu ko'rsatkich korxona faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlay olmaydi. Korxona faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligini ham aniqlanishi lozim. Buning uchun



chiqarishda qatnashadigan yerlarning ham, asosiy vositalarning to'la qiymatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. yerning qiymati esa Baliqchilik xo'jalik yerlari qiymatini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma yordamida aniqlanadi. Bunda rentabellik me'yori ushbu tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$R_n = \frac{S_f}{A_{if} + (A_{sf} \cdot E_k) + E_k} \times 100\%$$

Bunda:

R_n – rentabellik me'yori, foizda;

A_{if} – aylanma fondlarning o'rtacha yillik qiymati, so'mda;

A_{sf} – asosiy fondarning o'rtacha yillik qiymati, so'mda;

E_k – asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti;

E – yerning qiymati, so'mda

Bu ko'rsatkich yordamida korxona ixtiyoridagi barcha ishlab chiqarish resurslaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanganlik darajasi aniqlanadi. Ya'ni korxona ixtiyoridagi yerlarning, asosiy va aylanma vositalarning bir so'mlik qiymati evaziga qancha sof foyda olinganligi aniqlanadi. Masalan ishlab chiqarish vositalarini sotib olishda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda pul-tovar munosabatlari erkin amalga oshirilmoqda. Shuningdek turli hildagi kreditlarni, investitsiyalarni jalb yetishda erkin iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilmoqda. Ular Baliqchilik xo'jaligini rivojlanishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Natijada so'nggi yillarda Baliqchilik xo'jaligining yalpi mahsuloti, barcha harajatlari, shuningdek, pul daromadlari ham ortib bormoqda. Lekin Baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari baholariga nisbatan sanoat mahsulotlari baholarining o'sish darajasi yuqori bo'lganligi uchun tarmoqda olinayotgan sof foyda summasi doimo ham ortayotgani yo'q. Masalan, Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining 1991–1998-yillarda o'rtacha sotish bahosi 15150,9 martaga oshgan bo'lsa, sanoat mahsulotlarining o'rtacha sotish baholari 134431 martaga oshgan. Ular o'rtasidagi mutanosibat 1:8,9 ga teng. 2000–2009-yillarda ham Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining narxi bilan sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar o'rtasida nomutanosiblik mavjud[3]. Lekin bu nomutanosiblik so'ngi yillarda ma'lum darajada qisqargan. Bunga hozirgi davrdagi iqtisodiy inqiroz ma'lum darajada ta'sir etgan. Narxlar o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi Baliqchilik xo'jaligida foydaning kamayishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari Baliqchilik xo'jaligi korxonalari barcha ishlab chiqarish resurslaridan etarli darajada yaxshi foydalanmagan. Shularning oqibatida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi tarmoq korxonalari xo'jalik faoliyatini 1996-yilda 11153,5 mln.so'm, 1997-yilda esa 16111,3 mln.so'm zarar bilan yakunlagan. Sirdaryo tumanida ham baliqchilik xo'jaliklari faoliyatida o'ziga xos ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Agar 1990-yillarda tarmoqning umumiy faoliyati ko'plab hududlarda zarar bilan yakunlangan bo'lsa, so'nggi yillarda Sirdaryo tumanida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida ahvol sezilarli darajada yaxshilandi. Jumladan, tumandagi xo'jaliklarda ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalanish, innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish va davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar tufayli yalpi mahsulot hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar:

Baliqchilik xo'jaligi yerlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;

xo'jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;

mehnat resurslari, ulardan foydalanish hamda rag'batlantirilishi;

ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;

baholar, soliqlar, to'lovlar darajasi;

suv resurslari, ulardan foydalanish darajasi;

davlat, mahalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag' va boshqalar.

Sirdaryo tumanida hovuzda baliq yetishtirish foydali va daromadli biznes bo'lib, uni tashkil qilish uchun egasi baliqning eng mos turini, parvarish usulini va baliqni saqlash xususiyatlarini aniqlashi kerak bo'ladi. Agar biznes-rejaning barcha sirlariga rioya qilinsa, ushbu biznes turidan foyda va foyda aniq bo'ladi.

Hovuz baliqchiligi iqtisodiy faoliyatning eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ishlab chiqarishning pirovard maqsadi har xil navdagi baliq va undan tayyorlangan turli xil mahsulotlardir. Hovuz baliqchiligining asosiy turlari Hovuz baliqchiligi hozirda ikkita asosiy turga bo'lingan. Birinchi turga iliq suvli, ikkinchisiga esa sovuq suvli deyiladi. Ularning orasidagi farq shundaki, birinchi holda normal fiziologik rivojlanish uchun nisbatan iliq suv muhitini talab qiladigan baliqlarning ayrim turlari boqiladi. Bunday vakillarga oq amur, sazan, sudak som va cho'rtan kiradi. Ikkinchisiga forel kiradi. Ushbu turdagi chuchuk suv baliqlarini yetishtirish nafaqat harorat rejimlari farqida, balki gidrokimyoda ham, kislorod darajasida ham mavjud

Jarayonning davriy xususiyatiga ko'ra, hovuz xo'jaliklari quyidagilarga bo'linadi:

To'liq tizimli

Baliq pitomnik.



To'liq tizimli hovuz xo'jaliklari baliqning uvildirigidan tortib to yetilib tovar shaklida sotishga qadar bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi. Naslchilik xo'jaliklari ham naslni ko'paytiradi. Baliq pitomniklari baliq urug'i aralashmalarini yetishtirish bilan shug'ullanadilar: lichinkalar, uvildiriq va yosh baliqlar. Kamdan kam hollarda baliq ikki yoshgacha yetishtiriladi. Boqish uchun mo'ljallangan baliq fermalari katta yoshdagi baliqlarni ko'paytiradi. Davomiyligiga qarab baliq fermalari quyidagilarga bo'linadi:

- Bir yillik oborotli
- Ikki yillik oborotli
- Uch yillik oborotli

Bu nom uvildirigidan yetuk baliqni yetishtirishga qancha vaqt kerakligiga bog'liq. Maqsadga ko'ra, barcha suv havzalari quyidagilarga bo'linadi: 1. Suv ta'minoti. 2. Asosiy. 3. Isituvchi. 4. to'plovchi Ko'paytirish uchun suv havzalari turlari Yaxshi rivojlangan hovuz xo'jaliklari turli ehtiyojlar va fasllar uchun bir nechta suv omborlarining mavjudligini talab qiladi. Birinchisi va eng muhim suv havzalaridan biri - bu urug ko'paytiruvchi. Ushbu turdagi suv havzalari uchun qurilma va texnik xizmat ko'rsatish uchun eng yuqori talablar qo'yiladi. U botqoq bo'lmagan zonada, yosh o'simliklar va urug'lantirish, tuxumdan chiqish va lichinkalarni ko'paytirish uchun qulay sharoitga ega bo'lishi kerak.[4]

Ushbu suv havzalarida suvni yetkazib berish va chiqarish tez va mustaqil bo'lishi kerak. Undan faqat urug'lantirish uchun foydalanib, zoologik va gigienik me'yorlarga qat'iy rioya qilish kerak. Keyingi xili – uvildiriq hovuzi. Unda uvildiriq ko'payishi amalga oshiriladi. Bu muhit to'yimli bo'lishi va zoti buzilishiga olib keladigan toksinlar va parazitlardan xoli bo'lishi kerak. Uvildiriq hovuzdan keyin baliq pitomnik hovuziga chiqariladi. Bu yerda yosh baliqlarni boqish va yetishtirish amalga oshiriladi. Qulaylik uchun ular qishlash joylari yonida joylashadi. Har qanday muvaffaqiyatli baliq yetishtirishning yana bir muhim omili bu qishlash hovuzidir. Ko'pincha qishlash paytida baliqlarning katta yo'qotishlari sodir bo'ladi. Kislorod yetishmasligi va noqulay harorat sharoitlari barcha foydali ixtioflarning o'limini keltirib chiqarishi mumkin. Hovuzning chuqurligi 1,5 metrdan oshmasligi kerak. Suv ta'minoti manbai torfsiz zonaga yaqin joyda o'rnatiladi. Boqiladigan hovuzlarning asosiy roli – sotiladigan tovar turlarni yetishtirish. Ularning o'lchamlari boshqalarnikiga nisbatan kattaroqdir, chunki ular kattalar uchun ko'proq erkinlikni talab qiladi. 150 gektargacha bo'lgan maydon tavsiya etiladi. Katta hajm o'z-o'zini oqlamadi, chunki bu baliq o'sishi bilan bog'liq bo'lgan barcha bo'g'inlarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Kichik hovuzlarning reproduktivligi ozuqa bazasini rivojlantirish uchun yaxshi sharoitlar tufayli biroz yuqori. Hovuzlar to'liq quritilishi uchun imkoniyat mo'ljallangan bo'lishi kerak. Urug'lanish davri boshlanishidan oldin fermerlar yozgi havza suvlarida alohida parvarish qilishni talab qiladilar. Yuqori sifatli nasl berish uchun tartib va o'lchamlarni diqqat bilan muvofiqlashtirish kerak. Sanitariya me'yorlariga rioya qilish karantinli suv havzalarini nazarda tutadi. Ular asosiylardan ma'lum bir masofada joylashgan bo'lib, ularni qo'zg'atish, kasal yuqtirgan nasllar yoki yosh baliqlarni almashtirish uchun saqlanadi. Bunday hovuzlardagi suvni oqizib chiqarishdan oldin zararsizlantirilishi qat'iy ravishda ko'rsatilgan. Oshxonalarga baliqlarini yetkazish uchun sotishdan oldin kuz davrida qisqa muddatli foydalanishni nazarda tutadigan qafaslar ishlatiladi. Hovuzlarning o'lchamlari juda aniq masshtab va o'zaro bog'liqliklarga ega. Bu nisbat naslchilik va baliq yetishtirishning intensivligiga bog'liq.

Baliqchilik biznes-rejasini qanday tuzish kerak? Agar siz uydagi hfovuzda chuchuk suv baliqlarini ko'paytirish va sotish bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, yangi boshlovchi baliqchi qaysi chuchuk suv baliq'i navini boqish kerakligini tanlashi kerak. Bu – ishlab chiqarishdagi asosiy masala. O'stirish rejalashtirilgan baliq turlarining barcha xususiyatlarini batafsil o'rganish kerak. Barcha xususiyatlarni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklarni, yillik o'sish davrlarini o'rganish kerak. Eng sodda va talab kuchli bo'lgan navlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Sazan va forel birinchi o'rinda tavsiya etiladi. Albatta, agar iloji bo'lsa, siz ikkala turni ham o'stirishingiz mumkin, lekin avval asoslarni o'zlashtirish tavsiya etiladi. Sazan bizning mintaqamizdagi eng oddiy baliq faunalaridan biridir. Uni yetishtirish oson va iqtisodiy samarador. Biroq, forel sotilganda uch baravar qimmat va baliqning ushbu turini sotishdan ko'proq foyda olish ehtimoli ancha yuqori. Ammo bu ishlab chiqarish uchun tajribali baliqchilarni jalb qilish kerak bo'ladi. Xavf va qiyinchiliklarni yangi boshlangan baliqchi o'zi hal qilishi kerak. Barcha baliqchilik xo'jaliklari umumiy qishloq xo'jalik soliqlariga o'tkazilgandan beri ushbu turdagi korxonalarning jozibadorligi oshdi. Bu yagona moliyaviy to'lov va QQS va boshqa soliqlarni to'lanmaydi. Baliqqa qayerda yashash "qulayroq"? Yaxshi yashash va yaxshi ko'payish suv mikroiqlimiga bog'liq. PH, kislorod va yillik harorat kabi ko'rsatkichlarni maqbul darajada ushlab turish kerak. Suv havzasining mikroiqlimi foydaga bevosita ta'sir qiladi. Hovuzga baliq solishdan oldin, yuqoridagi va boshqa ko'plab parametrlarni baholash kerak. Asosiy savollarga "baliq-biologik asosnoma" deb nomlangan usulda javoblar beriladi. Bu hovuz gidrokimyosi va mikroiqlim ko'rsatkichlari ro'yxati, shuningdek baliqlarni parvarish qilish, ovqatlantirish bo'yicha tavsiyalar. "Baliq-biologik asosnoma" ni ixtisoslashtirilgan muassasalar mutaxassislari o'tkazishi kerak. Forel va sazanni ko'paytirish uchun harorat rejimlarini taqqoslash Forel o'rta 16 dan 19 °C gacha haroratda o'sadi. Harorat 24 darajagacha ko'tarilsa, barcha baliqlarni yo'qotish xavfi mavjud. Bunda ko'payish va ovqatlanish, albatta to'xtaydi va tana vaznining pasayishiga olib keladi. 10-15 metr chuqurlikdagi hovuzlarni ishlatish yaxshiroqdir, ularning tubida janubiy hududlarning issiq mavsumida ham harorat 14-15 °C dan oshmaydi. Sazan ko'proq



oddiy. Hovuzni ifloslantiruvchi moddalardan tozalash kifoya. Sazan o'sishi va ovqatlanishi uchun qulay harorat 24-25 °C ni tashkil qiladi. Bir hovuzni 1,5 metr chuqurlikka qazish kifoya. Ushbu chuqurlikda oziq-ovqat ta'minoti yaxshi rivojlanadi, bu esa iqtisodiy samarani oshiradi. Hovuz uchun yana bir tavsiya uning o'lchamidir. Bu qanchalik katta bo'lsa, harorat shunchalik past bo'ladi va mikroiklim barqaror bo'ladi.

Baliqchilik xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko'paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari: Baliqchilik xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko'paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodi talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o'z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini obyektiv ravishda taqozo etadi. Shuning uchun ham bu masalaga iqtisodiy inqiroz sharoitida ham Respublika hukumati katta e'tibor bermoqda. Kelajakda Baliqchilik xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. Baliqchilik xo'jaligida yalpi hosilni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:[5]

- baliqning serhosil zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy yetishni tezlashtirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hovuzlarni suv bilan ta'minlash va tozalash tadbirlarini rivojlantirish;
- baliqlarni sifatli ozuqa bilan ta'minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;
- ekologiyani e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy, madaniy o'g'itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;
- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar. Baliqchilik xo'jaligida moddiy, mehnat va pul harajatlari tejallishini ta'minlovchi tadbirlar:
 - ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil yetishni jadallashtirish;
 - yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijasi ish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish;
 - ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish;
 - davr hamda moliyaviy harajatlarni imkoniyat darajasida kamaytirish va boshqalar. Bozor iqtisodi munosabatlarini baliqchilik xo'jaligiga joriy yetishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:
 - sanoat hamda baliqchilik xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni, sotishni erkinlashtirish, ular o'rtasidagi ekvivalentlikni ta'minlovchi tadbirlar joriy etilishini jadallashtirish;
 - nodavlat mulkchilik shakllari barpo etilishiga asoslangan tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;
 - investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;
 - birjalarning turlarini rivojlantirish;
 - sug'urta ishlarini rivojlantirish va boshqalar.

Bu tadbirlar, avvalo, yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mahsulotlar miqdori hovuz maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin. Hovuz maydonlarini ko'paytirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish talab etiladi. Lekin bu tadbir cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni baliq mahsuldorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun baliqlarning yangi, sermahsul, tezpishar zotlarini yaratish, irrigatsiya, melioratsiya, veterinar, kimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida suvning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda baliqlarni alohida hovuzlarda boqishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur. Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy harajatlar hajmini qisqartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun korxonalarning, mehnatning oqilona shakllarini tashkil etish talab etiladi. Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida jonli mehnat harajatlari kamayishini isbotlash lozim. Bu jarayonning ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini isbotlash zarur. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim. Buning uchun naslchilik ishlarini yo'lga solish zarur. Chorva hayvonlarini to'yimli yem-xashak bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha harajatlarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Yalpi foydaning ko'payishi mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar kamayishini taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar, tashkilotlar sonini qisqartirib, bevosita aloqalarga o'tishni ta'minlash lozim. Hozirgi davrdagi mavjud bo'lgan yagona er solig'ini, to'lovlar, kredit stavkalarini tartibga solish natijasida sof foyda summasi ko'payadi. Yuqorida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriyalarning ko'payishi, rivojlantirilishi, o'z navbatida, Baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqariishi iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo tumanida baliqchilik xo'jaliklarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy usullar bilan taqqoslaganda, yopiq suv



aylanish tizimi (RAS), aeratsiya qurilmalari va biooziqlantirish texnologiyalaridan foydalanish hosildorlikni ikki baravarga yaqin oshirdi, tannarxni 15–20 foizga kamaytirdi hamda sof foyda va rentabellik darajasini keskin yaxshiladi.

Davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, imtiyozli kreditlar va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari tarmoqning rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlarining erkinlashuvi mahsulotlarni sotish, ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish va kapital jalb qilish jarayonlarini yengillashtirdi. Natijada Sirdaryo tumanida nafaqat yalpi mahsulot hajmi, balki eksport salohiyati ham ortib bormoqda.

Biroq tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham qayd etildi. Xususan, energiya va ozuqa narxlarining o'zgaruvchanligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi va ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilmasligi ba'zi xo'jaliklarning rentabelligini pasaytirishi mumkin. Shu bois kelgusida quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ularga mahalliy sharoitga moslashtirilgan variantlarni ishlab chiqish.

Baliq oзуqalarini mahalliy xom ashyodan ishlab chiqarishni kengaytirish orqali tannarxni yanada kamaytirish.

Xo'jaliklarda energiya tejamkor uskunalarni qo'llash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

Malakali kadrlarni tayyorlash va ilmiy-amaliy tajribalarni ishlab chiqarishga joriy etish.

Umuman olganda, Sirdaryo tumanida innovatsion baliqchilik usullarini joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va yangi ish o'rinlari yaratishda ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 1.05.2017-yildagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2018-yil 6- noyabrda "Baliqchilik sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
3. Ergashev R.X. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", -T., "EXTREMUM PRESS", 2011. -B. 416.
4. Юнусов И.О. "Балиқчилик тармоғини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари" //08.00.04-Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ихтисослиги бўйича докторлик диссертацияси, 2020 йил 17 январь.
5. Umurzoqov O'.P., Toshboev A.J., Rashidov J., Toshboev A.A.. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2008. -264 b.
6. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. - T.: 2012. - 346 b.
7. Ergashev R., Halikov S. Innovatsion iqtisodiyot, -T., 2018.
8. Скляров Г. Рыбоводство. -М.: Feniks, 2011.
9. Abdug'aniev A.A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Adib nashriyoti, 2011. - 400 b.
10. David L. Debertin. Agricultural Production Economics Textbook. -2nd ed. Published by Macmillan. University of Kentucky, USA. 2012.
11. Рустамова И.Б., Шерипбаева У.А., Дехконова Н.С., Ахмедова В. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. -Т.: ТДАУ. 2015. 174 б.
12. Andrew Barkley and Paul W. Barkley. Principles of Agricultural Economics. -1 nd ed. Published in the USA and Canada by RoutledgeTaylor&Francis Group. USA. 2013.
13. Gerge W. Norton, Jeffrey Alwang and William A.Masters. Economics of Agricultural Development. -2nd ed. Published in the USA and Canada by RoutledgeTaylor&Francis Group. USA. 2010.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>